

## ISLOM QADRIYATLARI VA MA'RIFATINING HOZIRGI DAVRDAGI AHAMIYATI.

*Abduraximova Shaxnozabonu Axmadjon qizi.*

*Farg'onan davlat universiteti talabasi*

*[shahnozabonuabdurahimova@gmail.com](mailto:shahnozabonuabdurahimova@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada islam qadriyatlari va ma'rifatining zamонавиј davrdagi o'rni va ahамiyati keng qamrovda tahlil qilinadi. Islom dinining insonparvarlik, bag'rikenglik, adolat va ilmga intilish kabi muhim tamoyillari hozirgi globallashuv jarayonida jamiyatning ma'naviy barkamolligini ta'minlashdagi asosiy omil sifatida talqin etiladi. Ayniqsa, yosh avlod tarbiyasida islomiy-ma'rifiy qadriyatlarning ahамiyati, ularning milliy o'zlikni asrash va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashdagi ro'li yoritiladi. Maqola orqali islam ma'rifati bugungi kun tahdidlariga qarshi ma'naviy qalqon, komil insonni tarbiyalovchi qudratli manbaa sifatida ko'rsatiladi.

**Kalit so'zlar:** islam qadriyatlari, ma'rifat, zamонавиј jamiyat, ma'naviyat, yosh avlod tarbiyasi, globallashuv, milliy o'zlik, ijtimoiy barqarorlik.

**Аннотация:** В данной статье всесторонне анализируется роль и значение исламских ценностей и просвещения в современную эпоху. Основное внимание уделяется таким важным принципам ислама, как гуманизм, терпимость, справедливость и стремление к знаниям, которые рассматриваются как ключевые факторы обеспечения духовного совершенства общества в условиях глобализации. Особенno подчёркивается значение исламско-просветительских ценностей в воспитании молодёжи, их роль в сохранении национальной самобытности и укреплении социальной стабильности. Через призму анализа исламское просвещение представлено как духовный щит от современных вызовов и мощный источник формирования всесторонне развитой личности.

**Ключевые слова:** исламские ценности, просвещение, современное общество, духовность, воспитание молодежи, глобализация, национальная идентичность, социальная стабильность.

**Annotation:** This article provides a comprehensive analysis of the role and significance of Islamic values and enlightenment in the contemporary era. It explores the key principles of Islam—such as humanism, tolerance, justice, and the pursuit of knowledge—as essential factors in ensuring the spiritual integrity of society amidst the processes of globalization. The article particularly highlights the importance of Islamic educational and ethical values in the upbringing of the younger generation, their role in preserving national identity, and in strengthening social stability. Through this examination, Islamic enlightenment is presented as a powerful source of spiritual

resilience, serving as a foundation for nurturing well-rounded, morally upright individuals capable of addressing contemporary challenges.

**Keywords:** Islamic values, enlightenment, contemporary society, spirituality, youth education, globalization, national identity, social stability.

Bugungi murakkab va ziddiyatlarga to‘la zamonda insoniyat moddiy taraqqiyot cho‘qqilarini zabit etar ekan, ma’naviy va axloqiy qadriyatlar tobora so‘nib borayotganining guvohi bo‘lmoqdamiz. Ayniqsa, yosh avlod orasida o‘zligidan yiroqlashish, milliy va diniy qadriyatlarga befarqlik, madaniyatsizlik kabi salbiy holatlar kuchayib borayotgani hech kimga sir emas. Ana shunday sharoitda Islom qadriyatları va ma’rifatining ahamiyati tobora ortmoqda. Chunki bu qadriyatlar insonni nafaqat tashqi, balki ichki poklikka, qalb go‘zalligiga, adolat, sabr, halollik, ilm va tafakkurga yetaklaydi.

Islom dinining asosiy g‘oyasi – insonni komil shaxs etib tarbiyalashdir. U insonni faqatgina ibodat qilishga emas, balki ijtimoiy hayotda faol, mas’uliyatli va ma’rifatli bo‘lishga chorlaydi. Ma’rifat esa – jaholatga qarshi eng kuchli quroldir. Ayniqsa, hozirgi kunda turli buzg‘unchi g‘oyalarning oldini olish, diniy savodsizlikka barham berish, radikalizmga qarshi kurashish uchun Islomda mujassam bo‘lgan ma’rifiy meros va axloqiy me’yorlarni chuqur anglash muhimdir.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi – Islom dinining ezgulik, adolat, ma’naviyat va ilmga asoslangan qadriyatlarning hozirgi zamonaviy jamiyatdagi dolzarbligini ochib berishdir. Maqolada bu qadriyatlarning yosh avlod tarbiyasi, ma’naviy uyg‘onish, ijtimoiy barqarorlik va jaholatga qarshi kurashdagi o‘rni yoritiladi.

**Islom qadriyatlarning hozirgi davrdagi ahamiyati. Islom qadriyatlari** – bu islom dini asosida shakllangan axloqiy, ma’naviy va ijtimoiy qadriyatlар bo‘lib, musulmonlarning kundalik hayotida muhim o‘rin tutadi. Ular Qur'on, Hadis (Payg‘ambar Muhammad sallallohu alayhi vasallamning so‘zlari va amallari), hamda islom huquqi (fiqh) asosida shakllangan.

Quyida islomiy qadriyatlardan ayrim asosiylarini sanab o‘tamiz:

**1. Tavhid (Yagona Allohga ishonish): Islomning eng muhim qadriyati – yagona Allohga imon keltirishdir. Bu e'tiqod barcha amallar va hayotiy qarorlarning asosidir.**

**2. Adolat (Adolatlilik): Zulm qilish, boshqa odamlarga nohaqlik bilan munosabatda bo‘lish qat'iyan man etiladi.**

**3. Halollik: Halol rizq topish, haromdan yiroq bo‘lish, savdoda, muomalalarda halollikni saqlash.**

**4.Ilm va tafakkur: Ilm olish har bir musulmon uchun farz sanaladi.**

**5. Sabr-toqat: Qiyinchiliklarga sabr qilish, Allohnning qazosiga rozi bo‘lish.**

## **6. Hayo va poklik: Hayo (uyat) musulmonning ziynatidir. Odamlar bilan munosabatda odob saqlash juda muhim.**

Alloh islom dinini barcha dirlarning xotimasi, payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalomni eng oxirgi payg‘ambar qilib yubordi. Islom dini qiyomatgacha insoniyatni haq yo‘lga boshlovchi din bo‘lib davom etadi. O’rta millat – adolatli millat hamda ezgu ishlarga qodir bo‘lgan millat tushuniladi. Shuningdek, Payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalom ham “Har bir ishning o‘rtasi yaxshi” deya bejiz aytmaganlar. Chunki, biz musulmon ummatlari dunyo xalqlari orasida eng yaxshi va eng adolatli millat ekanligimizni doimo yodda tutishimiz darkor.

Tinchlik va ezgulik insoniyat hayoti uchun eng muhim omillardan ekanini hisobga olsak, muqaddas Islom dinimizda albatta bu borada juda muhim ko‘rsatmalar bor. Biz buni dinimizning “Islom” deb nomlanishidan ham bilib olishimiz mumkin. Islom dini – insoniyat uchun tinchlik va farovonlik manbai bo‘lib, bu din Allohningadolati va rahm-shafqatiga asoslanadi. Har bir musulmonning asosiy vazifasi o‘z hayoti davomida tinchlik va ezgulikni yoyish, boshqalarga o‘rnak bo‘lishdir.

Bugungi globallashuv davrida jumladan islomofobiya ko‘rinishlari musulmon jamiyatlarining tafakkur tarziga, madaniyati, urf-odatlari va qadriyatiga ta’sir ko‘rsatayotganiga hammamiz guvohmiz. Shu sababli muhtaram prezidentimizning tashabbuslari o‘laroq, joriy yilning 15-16-oktabr kunlari Toshkent va Xiva shaharlarida “Islom – tinchlik va ezgulik dini” mavzusida nufuzli xalqaro konferensiya bo‘lib o’tdi.

Anjuman ishida Saudiya Arabiston, Misr, Turkiya, Iordaniya, O‘mon, Rossiya, AQSH, Fransiya, Ozarbayjon, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkmaniston, Hindiston va Pokiston kabi dunyoning 22 mamlakatidan 70 dan ortiq nufuzli xalqaro tashkilotlar rahbarlari, din arboblari, muftiylar va taniqli ulamolar ishtirok etishdi.

Konferensiyadan ko‘zlangan asosiy maqsad – shiddatli globallashuv sharoitida islom dini qadriyatlari, uning tinchlikparvarlik mohiyatini keng targ‘ib qilish, yoshlarni diniy bag‘rikenglik va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashdir.

Ta’kidlash joizki, dunyoning turli mintaqalarida qonli to‘qnashuvlar, mafkuraviy kurashlar, g‘oyaviy qarama-qarshiliklar, turli yo‘nalish va oqimlar o‘rtasida o‘zaro nizo va ziddiyatlar tobora avj olib borayotgan bugungi murakkab zamonda muqaddas islom dinining tinchlikparvarlik va insoniylik mohiyatini keng targ‘ib etish jahonda tinchlik va osoyishtalik, hamjihatlik, totuvlik va bag‘rikenglikni ta’minlash, jamiyatda turli buzg‘unchi g‘oyalar tarqalishining oldini olishda muhim omil hisoblanadi.

Islom ta’limoti vujudga kelgan ilk davrdan bugungi kunga qadar insoniyatning madaniy va ma’naviy kamolotida beqiyos o‘ringa ega bo‘lib kelmoqda. Islom dinining ma’rifiy ro‘li kelgusida ham umumbashariy taraqqiyot va farovonlik, tinchlik va osoyishtalikni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Islom ma'rifatining hozirgi davrdagi ahamiyati.** Islom ma'rifatining hozirgi davrdagi ahamiyati juda katta va dolzarb. Bugungi globallashuv, axloqiy inqirozlar, ma'naviy izlanishlar davrida islomiy ma'rifat jamiyatni ma'naviy, axloqiy va ijtimoiy barqarorlikka yetaklovchi kuchli manba bo'lib xizmat qiladi.

So'nggi yillarda islom ilmlarini tadqiq qilish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, diniy-ma'rifiy sohada olib borilayotgan islohotlardan yurtimiz aholisi ham, xorijlik ma'rifatparvar insonlar ham mammun.

Islom olamida eng yetuk va mashhur olimlardan hisoblangan al-Buxoriy, Imom Ibn Muborak al-Marvaziy, ash-Shoshiy, Jamoliddin an-Nasafiy, Imom at-Termizi, Xo'ja Ahmad Yassaviy, Abdulxoliq G'ijduvoniy, Burxoniddin Marg'inoniy, Baxouddin Naqshband, Xoja Ahror Valiy, Abu Mansur Moturudiy singari buyuk zotlar shular jumlasidandir. Bizning yurtimiz - Turon zaminida va musulmon Sharqida tasavvufning bir necha tariqati ta'limotlari yuzaga kelgan va yoyilgan. Bularidan eng ko'p tarqalganlari Yassaviya, Kubroviya, Naqshbandiya va boshqa tariqatlardir. Ushbu tariqatlarda bildirilgan fikrlar milliy g'oyamizning tarixiy ildizlarini o'rganishda ma'naviy manba bo'lib xizmat qiladi.

Jumladan, O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi, O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi, Mir Arab oliy madrasasi, Hadis ilmi maktabi, Imom Buxoriy, Imom Moturidiy va Imom Termizi xalqaro ilmiy tadqiqot markazlari hamda kalom, hadis, aqida, tasavvuf, fiqh ilmlariga ixtisoslashgan 5 ta ilmiy maktabning faoliyati kelgusida o'lkamizdan yana buxoriylar, termiziylar, nasafiyilar, naqshbandiyalar yetishib chiqishiga zamin bo'ladi.

Haqiqatan, O'zbekiston diniy ta'lim tizimi o'zining qadim va o'lmas an'analariga ega. O'rta asrlardayooq Buxoro o'zining madrasalari va ulamolari bilan shuhrat qozonib, haqli ravishda "Islom olamining quvvati" unvoniga sazovor bo'lgan.

Bugungi kunda Respublikada faoliyat olib borayotgan oliy va o'rta maxsus diniy ta'lim muassasalarini yuqori malakali ilmiy kadrlar bilan ta'minlash, mutaxas sislarning ilmiy va kasbiy salohiyatini oshirish, Qur'on, tafsir, kalom, hadis va fiqh ilmlari mutaxassisliklari bo'yicha magistrarlari, ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlash maqsadida juda katta islohotlar amalga oshirilmoqda. Avvaldan ilmu ma'rifat markazi bo'lib kelgan zaminimizda ilm dargohlariga juda katta e'tibor qilinmoqda. Mukammal ilm o'chog'i hisoblangan yurtda ilmga yangicha yondashuv, o'zgacha kuch bilan kirishilsa, u tezda rivojlanib ketadi.

Bir hadisi sharifda Hazrati Payg'ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam): "Kim dunyoni xohlasa, tijorat qilsin, kimki oxiratni xohlasa, zohid bo'lsin, kimki ikkisini ham xohlasa, ilm olsin", deya marhamat qilganlar.

Milliy g'oya tarixini o'rganishda ma'naviy merosimizga ulkan hissa qo'shgan allomalarimizning merosini yoshlar o'rtasida targ'ib qilish muhimdir. Ularning

ma’naviyatni shakllantirishda insonniy ma’naviy yetuklikka chorlovchi diniy, axloqiy va falsafiy-xuquqiy hikmatlaridan foydalanishimiz lozim.

“Dunyo shiddat bilan o‘zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga rahna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo‘layotgan bugungi kunda ma’naviyat va ma’rifatga, axloqiy tarbiya, bilim olish, kamolga yetishga intilishiga e’tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir. Aynan ta’lim va ma’rifat bashariyat farovonligining asosiy omillaridan hisoblanadi, insonlarni ezgulikka da’vat etadi, saxovatli, sabr-qanoatli bo‘lishga undaydi. Muqaddas islom dinimiz bizga aynan shuni o‘rgatadi”.

“Mamlakatimizda “jaholatga qarshi–ma’rifat” degan ezgu g‘oya asosida islom dinining insonparvarlik mohiyatini, tinchlik va do’stlik kabi olivjanob maqsadlarga xizmat qilishini targ‘ib etish kun tartibimizdagi doimiy masalalardan biri bo‘lib qoladi.

Xulosa qilib aytganda, islom qadriyatları – adolat, halollik, mehr-oqibat, sabr-toqat va ilmu ma’rifatga intilish – har qanday jamiyatning ma’naviy poydevori hisoblanadi. Bugungi kunda bu qadriyatlar nafaqat insoniylik mezoni, balki barqarorlik va taraqqiyotning muhim omiliga aylangan. Ma’rifat esa jaholatga qarshi eng qudratli quroldir. Islomning ezgu tamoyillarini zamonaviy hayot bilan uyg‘unlashtirib yashash – komil jamiyat sari dadil qadamdir.

### **Adabiyotlar va manbaalar:**

1. Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. // Сочинения. Т. I. – М.: Изд-во восточной литературы, 1963. (yoki boshqa relevant asarlari)
2. Harshaxiy, Abu Bakr Muhammad ibn Ja’far. Buxoro tarixi (Tarixi Buxoro). Fors tilidan A. Rasulev tarjimasi. – Toshkent: Fan, 1991.
3. Maxkamov Qodirjon.Dinshunoslik(uslubiy qo’llanma).Namangan 2020.
4. A.V.Narbekov.Dinshunoslik asoslari(O ’quv qo’llanma)Toshkent 2007.
5. Bobomurodov, A. E. (2021). The specific features of agility in preschool children. Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal, 2021(06), 101-111.